



## XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

2025-yil 20-may

VII-11-85-4-0-K/25

Qashqadaryo viloyati

### **Qamashi tumani “Uzun” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Tong aholi punkti nomini o‘zgartirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 5-sentabrdagi 05-09-01-3666-sonli ekspertiza xulosasi, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 26-avgustdagi B-07-15/329-sonli yig‘ilish bayoni, 2024-yil 11-sentabrdagi 07-15/8297-sonli xulosasi, Qamashi tumani hokimining 2025-yil 24-yanvardagi 01-13/265-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 16<sup>2</sup>- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 5-sentabrdagi 05-09-01-3666-sonli ekspertiza xulosasi, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2024-yil 26-avgustdagi B-07-15/329-sonli yig‘ilish bayoni, 2024-yil 11-sentabrdagi 07-15/8297-sonli xulosasi, Qamashi tumani hokimining 2025-yil 24-yanvardagi 01-13/265-sonli xati hamda viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Egamovning taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tumani “Uzun” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi Tong aholi punktining nomi *ilovaga* muvofiq o‘zgartirilsin.

3. Viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (F.Muhammadiyev), viloyat statistika boshqarmasi (Sh.Tayloqov), “Kadastr agentligi davlat kadastrlari palatasi” viloyat boshqarmasi (G‘.Hamrayev), Qamashi tumani hokimligi (X.Usmonov) mazkur qaror ilovasida ko‘rsatilgan aholi punkti nomini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

4. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov), Qamashi tumani hokimligi (X.Usmonov) qayta nomlangan aholi punktiga aholini ro‘yxatga qo‘yish hamda tegishli yo‘l belgilarini o‘zgartirish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamrayev), Qamashi tumani hokimligi (X.Usmonov) bilan birgalikda nomlangan aholi punktiga belgilangan tartibda zamonaviy talablar asosida peshlavha va ko‘rsatkich belgilari o‘rnatilishini ta‘minlasin.

6. Viloyat hokimining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Egamov mazkur aholi punkti nomini o‘n kun muddatda davlat reyestri bazasiga kiritish choralarini ko‘rsin.

7. Ushbu qaror viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilinsin.

8. Ushbu qaror rasman e‘lon qilingandan so‘ng kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Xalilov hamda viloyat hokimining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi N.Egamov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



XUSHMURODOVA  
ISMIGUL  
BERDIMURODOVNA

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati  
Kengashining  
2025-yil 20-maydagi  
VII-11-85-4-0-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Qamashi tumani “Uzun” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi nomi  
o‘zgartirilayotgan aholi punkti**

| <b>T/r</b> | <b>MFY<br/>nomi</b> | <b>O‘zgar-<br/>tiriladigan<br/>obyekt turi</b> | <b>Obyektning<br/>amaldagi<br/>nomi</b> | <b>Taklif<br/>qilingan<br/>nom</b> | <b>Ekspertiza<br/>xulosasi</b> |
|------------|---------------------|--|---|------------------------------------|--------------------------------|
| 1          | “Uzun”<br>MFY       | Aholi punkti                                   | Tong                                    | Qozoq                              | Qonun talablariga<br>muvofiq   |